



**SIRDARYO VILOYATI  
MIRZAOBOD TUMANI  
1-SONLI MAKTABNING  
BOSHLANG'ICH SINF  
O'QITUVCHISI  
AXROROVA GULSARA**

**Harf va tovush tahlili**



**«Harf va  
tovush  
tahlili»**



- 1993 yildan boshlab o'zbek tili yozuvi uchun lotin grafikasi asos qilib olindi.
- O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni tovush va harflar bilan tanishtirishda, ularni tahlil qilishga o'rgatishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.
- Darsda yangi tovush birinchi marta ajratib, talaffuz qilingandan so'ng, odatda, shu tovush so'z boshida, o'rtasida, oxirida kelgan va aniq talaffuz qilinadigan so'zlar tanlanib, o'quvchilarga talaffuz qildiriladi.

- 1-sinfda fonetika va grafikani (fonetika yunoncha phone —tovush; grafika yunoncha grafike — chizuv) o‘rganishga katta o‘rin beriladi. O‘quvchilar so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlarga bo‘lish, o‘rganiladigan har bir tovushni aytilishi va yozilishini qunt bilan o‘zlashtirish uchun analiz, sintez, taqqoslash, guruqlash singari aqliy mashqlarni o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida muntazam bajaradi. Shunda ular so‘zlar tarkibidagi tovushlarning tabiatini, o‘zaro ta’siri kabi ayrim boshlang‘ich bilimlarni egallash malakasiga ega bo‘lishadi.

1-sinfning «Ona tili» darsligida (2-yarim yillikda) berilgan mashqlar asosida o‘quvchilar so‘zning tovush tarkibini aniqlashadi, so‘zdagi tovushlarni tartib bilan aytishga va yozuvda ifoda etishga o‘rganishadi. Shu tarzda ular o‘zbek alifbosi haqida quyidagicha ma’lumotga ega bo‘ladilar:

- 1) — **o‘zbek alifbosida faqat bir nutq tovushini ifodalaydigan harflar 24 ta;**
- 2) — **ikki harf birikmasi bilan ifodalanadigan nutq tovushlari —3 ta (sh, ch, ng);**
- 3) — **bir belgi bilan nomi o‘zgargan harflar 2 ta (o—o‘, g—g');**
- 4) — **umumiyligi harflar soni 29 ta, tovushlar esa 30 ta («j» harfi ikki tovushni bildiradi: jazzi, jurnal).**

- Jarangli undoshlar:
  - **b, v, g, d, z, j, ʃ, q y, l, m, n, r, ng**
- Jarangsiz undoshlar:
  - **p, f, k, t, s, ch, sh, x q, q**
- Bolalar jufti yo'q jarangli undoshlar so'zning oxirida kelganda ham talaffuzi yozilishiga mos kelishini bilib olishlari etarli. Jufti bor jarangli undoshlar so'z oxirida kelganda bunday moslik bo'lmaydi.

- O'quvchilar undosh tovushlarning imlosi yuzasidan quyidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilishi kerak.
- 1. Jufti bor jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratish.
- 2. So'z oxirida kelgan jufti bor jarangli undosh tovushning jarangsiz jufti eshitilishini, shuning uchun bunday so'zni tekshirish kerakligini.
- 3. Undosh tovush unli tovushdan oldin kelganda boshqa tovush bilan almashmasligini.
- 4. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi so'zdagi undosh harfni taqqoslash (kitobi-kitob).

Tovush murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda unga ta'rif berilmaydi, ammo amaliy ishlar olib boriladi. Bunda yetakchi usul so'zdagi tovushlarning talaffuzi, so'zning leksik ma'nosi, so'zdagi tovushlarning tarkibiga bog'liqligi ustida kuzatish hisoblanadi.

*Masalan: ota-on, kul-gul.*

- O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi hisoblanadi,
  - chunki tovush yozuvda harflar bilan ifodalanadi.
- 
- *1-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim:*
    - a) tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz;
    - b) harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz;
    - v) harf – tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi.



- 2—4-sinflarda ham so‘zni tovush tomonidan tahlil qilish mashqlari
- o‘tkazilib, fonetik bilimlar takomillashtirib boriladi.
- 3-sinfda undosh tovushlar ovozningishtirok etishi yoki ishtirok etmasligiga ko‘ra, jarangli va jarangsiz bo‘ladi, deb o‘rgatiladi.

- So'zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Ular so'zni tovush tomondan tahlil qilishga o'rghanadi. Masalan: **yoz** so'zida **y, o, z**; **bulut** so'zida **b, u, l, u, t** tovushlari borligini aytishlari zarur.
- Bu esa so'zdagi harflarni tushirib qoldirmay yozish va to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. So'zning tovush tarkibi ustida ishlash 2-3-4 sinflarda ham davom ettiriladi.



- Tovushlar 2 guruhga bo'linadi: unli va undosh tovushlar. Uni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi belgilar hisobga olinadi:
  - 1. Talaffuz qilinish usuli.
  - 2. Ovoz va shovqinning ishtiroki
  - 3. Bo'g'in hosil qilish xususiyati



# Tovush-harf tahlili



- O'quvchilar savod o'rgatish davrida tovush, harf haqida amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. 1-2-sinflarda tovushlar va harflarga oid asosiy bilimlar o'quvchilarning savod o'rgatish jarayonida o'rgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda olib boriladi. Boshlang'ich sinflarning dastlabki yillari, 1-2-sinflar tahlilga tayyorlov davri hisoblanadi. 3-sinfdan boshlab tahlil ishlarini tashkil etish mumkin. 3-4-sinflarda esa tovushlar va harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi. So'zlarni tovush-harf tomonidan tahlil qilish takomillashtiriladi.



- 1-2-sinflarda **tovush-harf** tomonidan tahlil dasturning “Tovushlar va harflar”, “So’z”, “Gap” bo’limlarini o’rganish jarayonida og’zaki va yozma shaklda o’tkazib boriladi.  
3-4-sinflarda “Tovush va harflar” bo’limi yuzasidan quyi sinflarda o’tilganlar takrorlanadi. Shu davrda tahlil mashqlarini uyushtirish mumkin. 3-4-sinflarda tahlil sharoitni hisobga olgan holda o’quvchilar jamoa bo’lib yoki mustaqil bajarishlari mumkin

- Tovush-harf tahlili ona tili darslarida imlosi va talaffuzi qiyin so'zlarni o'rgatishda, yozma ishlar tahlili darslarida ham uyushtiriladi.
- 3-4-sinfda yozma ishlar tahlili darslarida o'quvchilar imloviy xatoga yo'l qo'ygan so'zlar ustida ishlashda tovush-harf tahlilini mustaqil ish qilib berish mumkin. Masalan, o'quvchi diktant yozish jarayonida "**Fahm**" so'zida imloviy xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, shu so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilish mustaqil ish qilib beriladi.

## **1-4 -sinflarda tovush-harf tahlilining vazifasi**

- 1-4 -sinflarda tovush-harf tahlilining vazifasi so’z tovushlarining tartibini, ularning xususiyatlarini, tovushlar va harflar o’rtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi. Boshlang’ich sinflarda tovush-harf tahlili quyidagi tartibda o’tkaziladi:

## Boshlang'ich sinflarda tovush-harf tomonidan tahlil tartibi quyidagicha:

- 1. *So'zda nechta bo'g'in bor,*  
*nechanchi bo'g'in urg'uli?*
- 2. *So'zda nechta tovush va nechta harf bor?*  
(*Tovushlar soni harflar sonidan kam yoki ko'p bo'lsa, sababini aytish*)
- 3. *Unli tovush nechta? Undosh tovush-chi?*
- 4. *Har bir tovushni xarakterlash.*  
*Tovush so'zda qaysi harf bilan ifodalangan?*

# 1-sinf uchun tovush-harf tahlil tartibi:

1. So'zni to'g'ri talaffuz qilish.
2. Harflar soni.
3. Tovushlar soni.
4. Unlilar son.
5. Undoshlar soni.
6. Bo'g'inlar soni.

Og'zaki tahlil namunasi.

*Daftar* – 6 ta tovush, 6 ta harf (d,a,f,t,a,r) bor.

Unli tovushlar: 2 ta (a, a)

Undosh tovushlar: 4 ta (d, f, t, r)

*Daftar* – ikki bo'g'indan iborat: *daf-tar*



## 2-sinfda tovush-harf tomondan tahlil

2-sinfda “Tovushlar va harflar” bo’limini o’rganish davom ettiriladi. Bu sinfda quyi sinfda o’rganilganlar takrorlanadi:

- jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularni harf bilan belgilash, so’z oxiridagi jarangli tovushlarning jarangsiz jufti eshitilishi,
- ba’zi so’zlarning talaffuzida undoshlarning tushib qolishi haqida nazariy bilimlar beriladi, amaliy ko’nikmalar hosil qilinadi.

3-4-sinflarda esa tovushlar hva harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi.

## **2-4-sinflarda tovush-harf tomondan tahlil tartibi:**

1. So'zni to'g'ri talaffuz qilish.
2. So'zdagi tovushlar va harflar soni.
3. Unli tovushlar soni.
4. Undoshlar tovushlar soni.
5. Jarangli undoshlar.
6. Jarangsiz undoshlar.
7. So'zdagi bo'g'inlar soni.



# 4-sinf darsligidagi 103-mashq



- 4-sinf darsligidagi 103-mashqda “**qaldirg’och**” so’zini tovush-harf tomondan tahlil qilish so’ralgan va quyidagi namuna berilgan:

**Tovush-harf tahlili tartibi.**

**Zag’cha (zag’cha)** – 5 ta tovush,

- 4 - ta harf, 1 - harf birikmasi.

- Unli tovushlar: a, a.

Undosh tovushlar: z, g’, ch.

Jarangli undoshlar: z, g’.

Jarangsiz undosh: ch.



# Tahlil namunasi: “*Kitob*” so’zi

- 1. So’zda ikki bo’g’in bor. Ikkinchı bo’g’in – urg’uli: *ki-tób*.
- 2. So’zda beshta tovush, beshta harf bor.
- 3. So’zda ikki unli tovush, uch undosh tovush bor.
- 4. **k** – undosh, jarangsiz, **k** harfi bilan ifodalangan
- **i** – unli tovush, **i** harfi bilan ifodalangan
- **t** – undosh tovush, jarangsiz, yozuvda **t** harfi bilan ifodalangan
- **o** – unli tovush, **o** harfi bilan ifodalangan.
- **b** – undosh tovush, jarangli, **b** harfi bilan ifodalangan



# Tahlil namunasi: "*Sahifa*" so'zi:

- So'zda uchta bo'g'in bor: *sa-hi-fa*

So'zda oltita tovush, oltita harf bor.

So'z uch unli tovush, uch undosh tovushdan iborat.  
**s** - undosh tovush, jarangsiz, s harfi bilan ifodalangan.

**a** - unli tovush, a harfi bilan ifodalangan,

- **h** - undosh tovush, jarangsiz,yozuvda

- **h** - harfi bilan ifodalangan.

- **i**-unli tovush, **i** harfi bilan ifodalangan.

- **f** undosh tovush, jarangsiz, **f** harfi bilan

- ifodalangan.



## Og'zaki tahlil namunasi:

- *Tong* so'zida 3ta tovush,
- 2ta harf (t,o, )
- 1 ta harf birikmasi (ng) bor.

Unli tovushlar: 1ta (o)

Undosh tovushlar: 2ta (t, ng)

Jarangli undoshlar: 1ta (ng)

Jarangsiz undoshlar: 1ta (t)

*Tong* so'zi bir bo'g'inli.



## Tovush-harf tomonidan to'liq bo'lмаган тahlil

- Tovush-harf tomonidan to'liq bo'lмаган тahlildan so'zning yozilishini tushuntirishda ham, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rgatish maqsadida ham foydalaniladi. Masalan, ***maktab*** so'zi oxirida ***b*** undoshi ***p*** tarzida talaffuz qilinadi, jufti bor undosh, tekshiramiz: ***maktabim – maktab, b*** harfi yoziladi.



# Izohli diktant

- Tovush-harf tomonidan tahlil qilishda **izohli diktantda** ham o'rgatiladi.
- **Izohli diktant** o'quvchilarining qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomonidan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.

## Masalan:“Odob –inson ziynati”

- **Odob** : O-dob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida o; ikkinchi bo'g'inida b, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so'z oxiriga i tovushini qo'shamiz va aytamiz: **odobi. b** tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi.

- Quyida tovush-harf tomonidan
- tahlil qilish uchun materiallar havola qilinadi.  
1- topshiriq  
**Istiqlol so'zini tahlil qiling.**

- 2- topshiriq

She'rni ifodali o'qing. Ajratib ko'rsatilgan  
so'zlarni tovush-harf tomonidan

- tahlil qiling.

Dadil qadam tashlagaysan,

- Jahonaro yashnagaysan.
- Xalqni **baxtga** boshlagaysan,
- Baxt **makonim**, O'zbekiston.

- 3- topshiriq

Nuqtalar o’rniga tushirib qoldirilgan harflarni  
qo’yib, so’zlarni ko’chiring.

Ajratib ko’rsatilgan so’zlarni yozma  
tovush-harf tomonidan tahlil qiling.

*Ozo. , odo.li, **muro.** , ziyna. , i.rok.*

- 4- *topshiriq*

Yonma-yon kelgan ***bb, ll*** undoshlar  
qatnashgan 4 ta so'z topib yozing  
Ulardan ikkitasini tovush-harf tomonidan

- tahlil qiling.

2-4-sinf o'quvchilarini tovush-harf tomonidan  
tahlilga o'rgatishda quyidagi jadvaldan foydalanish ham  
mumkin.

So'zlar	tovush	harf	unli	undosh	Jarang li	Jarang siz	bo'g'in
e'tiqod	6	6 e, t, i, q, o, d	3 e,i, o	3 t, q, d	1 d	2 t, q	3 e'-ti-qod

# *Chiroyli*




Tovush	Harf	Unli harf	Undosh harf	Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar	Bo'g'in
7 ta	6 ta 1 ta harf birik- masi	3 ta i,o,i	4 ta Ch,r,y,l	r,y,l	Ch	3 ta chi-roy-li



# *shamol*



Tovush	Harf	Unli harf	Undosh harf	Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar	Bo'g'in
5 ta	4 ta 1 ta harf birik- masi	2 ta a,o	3 ta sh,m,l	m,l	sh	2 ta Sha-mol



# *shodlan*

Tovush	Harf	Unli harf	Undosh harf	Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar	Bo'g'in
6 ta	5 ta 1 ta harf birik- masi	2 ta o,a	4 ta Sh,d,l, n	d,l,n	sh	2 ta Shod-lan

# *keling*



Tovush	Harf	Unli harf	Undosh harf	Jarangli undoshlar	Jarangsiz undoshlar	Bo'g'in
5 ta	4 ta 1 ta harf birik- masi	2 ta e,i	3 ta K,l,ng	l,ng	k	3 ta Ke-ling



E'tiboringiz  
uchun rahmat

